Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 07-noyabr 2026-yil

JADID ADABIYOTIDA MILLIY ONG, MA’RIFAT VA MILLIY ÖZLIK MASALALARINING BADIIY IFODASI.

Qurbonova Laylo Tolibayevna

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

qardoş tillar metodisti



Annotatsiya. Tezisda jadid adabiyotida özlikni anglaş ğoyasining janr va poetika orqali ifodalanişi tadqiq etiladi. Vatan, millat, hurriyat va ona tili tuşunçalarining dramaturgiya, nasr va şe’riyatdagi badiiy talqini tahlil qilingan. Behbudiy, Fitrat, Qodiriy va Çölpon asarlari misolida janrlarning milliy özlikni anglaşdagi örni, şuningdek, jadid adabiyotining turkiy xalqlar adabiyotlari bilan tipologik yaqinligi körsatilgan.

Kalit sözlar: jadid adabiyoti, özlikni anglaş, janr, poetika, vatan, millat, hurriyat, ona tili, tarixiy roman, dramaturgiya.

Annotation. The thesis investigates how the idea of self-awareness is expressed through genre and poetics in Jadid literature. It analyses the artistic interpretation of the concepts of homeland, nation, freedom and mother tongue in drama, prose and poetry. Using the works of Behbudiy, Fitrat, Qodiriy and Cholpon as examples, the study shows the role of literary genres in shaping national self-awareness, as well as the typological closeness of Jadid literature to the literatures of other Turkic peoples.

Keywords: Jadid literature, self-awareness, genre, poetics, homeland, nation, freedom, mother tongue, historical novel, drama.

Kiriş

Jadid adabiyoti milliy uyğoniş davrining ma’naviy hodisasi sifatida nafaqat ğoyaviy mazmuni, balki yangi janr va badiiy şakllarni şakllantirgani bilan ham ahamiyatlidir. Drama, tarixiy roman, yangi özbek şe’riyati va publitsistika jadidlar qölida jamiyatni uyğotiş va milliy özlikni anglatiş vositasiga aylandi [1; 2].

Bu davr adabiyoti tadqiqotlarda asosan ğoyaviy-tarixiy jihatdan örganilgan [3]. Özlikni anglaş ğoyasining janr va poetika bilan boğliqligi esa kengroq tadqiq etilişi lozim bölgan yönaliş sifatida qolmoqda. Yoşlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaş, tarixiy xotira va ma’naviy yetuklikni şakllantiriş vazifalari [4] jadid merosining badiiy tajribasiga murojaatni dolzarb qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — jadid adabiyotida özlikni anglaş ğoyasining janrlar kesimida ifodalaniş xususiyatlarini aniqlaş va ilmiy asoslaşdan iborat. Bunda vatan, millat, hurriyat va ona tili konseptlarining dramaturgiya, nasr va şe’riyatdagi badiiy talqini tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, janr-poetik va tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Ilmiy yangilik şundaki, özlikni anglaş ğoyasi jadid adabiyotida janrlararo yaxlitlikda, şuningdek, qardoş turkiy adabiyotlar bilan tipologik qiyosda örganildi. Natijalar adabiyotşunoslik, adabiyot öqitiş metodikasi va pedagoglar malakasini oşiriş amaliyotida qöllanişi mumkin.

Asosiy qism

Özlikni anglaş şaxsning va xalqning öz tarixi, tili, madaniyati va jamiyatdagi örnini teran idrok etişini bildiradi. Jadid adabiyotida bu jarayon vatan, millat, hurriyat va ona tili kabi markaziy tuşunçalar orqali ifodalanadi. Jadidlar millatni til, tarix, madaniyat va taqdir birligi sifatida tasavvur qildilar, adabiyotni esa şu birlikni anglatuvçi eng ta’sirçan vosita deb bildilar. Şu bois har bir janr ularning ijodida muayyan badiiy-ijtimoiy vazifani bajaradi.

Dramaturgiyada özlikni anglaş ğoyasi ziddiyat va dialog orqali oçiladi. Mahmudxöja Behbudiyning “Padarkuş” dramasi özbek milliy dramaturgiyasining ilk namunasi sifatida 1914-yilda Samarqandda sahnalaştirilgan, sahna esa jamiyatni uyğotuvçi minbar vazifasini ötagan [5]. Asardagi konflikt ilm va jaholat, tarbiya va beparvolik örtasidagi qarama-qarşilikka asoslanib, millat kelajagi masalasini ötkir ijtimoiy mulohaza darajasiga kötaradi. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida esa tarixiy voqelik orqali hukmdor va xalq, davlat va millat taqdiri uçun mas’uliyat ğoyasi dramatik talqin etiladi [6].

Nasrda, ayniqsa tarixiy romanda, özlikni anglaş tarixiy xotira bilan uyğunlaşadi. Abdulla Qodiriyning “Ötkan kunlar” va “Mehrobdan çayon” asarlarida ötmiş voqealari

yozuvçining öz davri savollariga javob izlaş vositasiga aylanadi [7]. Tarixiy voqelik, urf-odat va inson taqdiri özaro boğlanib, milliy xarakterning badiiy yaxlit obrazini yaratadi. Bu asarlar tarixga murojaat qiliş orqali bugungi kunni va kelajakni anglaş mumkinligini körsatadi.

Şe’riyatda özlikni anglaş lirik keçinma va ramziy obraz orqali ifodalanadi. Çölponning “Buzilgan ölkaga” kabi şe’rlarida vatan obrazi vayron bölgan, ammo qayta tiklanişga loyiq ölka sifatida gavdalanadi, lirik qahramon dardi esa butun xalqning dardiga aylanadi [8]. Şoir şe’riyatida ritm, takror va ramziy qarama-qarşilik (keça va kunduz, uyqu va uyğoniş) hissiy ta’sir kuçini oşiradi. Şu tariqa şe’riyat milliy uyğonişning hissiy poydevori vazifasini bajaradi.

Ona tili masalasi jadidlar uçun özlikni anglaşning asosiy mezonlaridan biri edi. Ular tilni millat ruhi va madaniyat taşuvçisi deb bildilar, uning tozaligi va rivoji uçun matbuot, maktab va filologik izlanişlar orqali kuraşdilar. Fitratning filologik qaraşlari, Qodiriy va Çölpon asarlari tili esa milliy badiiy til imkoniyatlarini kengaytirdi va uni yangi mazmun bilan boyitdi. Binobarin, til jadid adabiyotida nafaqat ifoda vositasi, balki özlikni anglaşning özi ham edi.

Jadid adabiyoti umumturkiy hodisa sifatida qardoş xalqlar adabiyotlari bilan ham tipologik yaqinlikka ega. Masalan, qozoq jadidlaridan Mirjaqip Dulatulining “Oyan, qozoq!” (1909) şe’riy töplami nomining özidayoq uyğonişga çorlov ğoyasi mujassam [9]. Uyğoniş, ma’rifat, ona tili va tarixiy xotira kabi mavzular turkiy xalqlar jadid adabiyotining umumiy qatlamini taşkil etadi. Uşbu yaqinlikni qiyosiy örganiş özbek jadid adabiyotining örnini keng turkiy kontekstda yoritişga imkon beradi.

Publitsistika jadid adabiyotining alohida janr-tur sifatida özlikni anglaş ğoyasini keng ommaga yetkazişda muhim örin tutdi. Behbudiy taşabbusi bilan çiqqan “Oyna” jurnali va boşqa jadid naşrlarida maqola, murojaat va oçerklar badiiy obrazlilik bilan boyitilib, öquvçini fikrlaşga, öz ahvoliga tanqidiy nazar bilan qaraşga undadi [5]. Publitsistik pafos badiiy asarlar tilida ham saqlanib, jadid adabiyotining özига xos ohangini şakllantirdi.

Jadid asarlaridagi obrazlar tizimi ham özlikni anglaş ğoyasini oçişga xizmat qiladi.

Ma’rifatparvar ziyoli, vatan dardi bilan yaşovçi şaxs, tarixiy qahramon va xalq vakili obrazlari milliy ideal haqidagi qaraşlarni jamlaydi. Uşbu obrazlar orqali muallif bir tomondan millatning illatlarini tanqid qilsa, ikkinçi tomondan uning içki imkoniyatlari va tiklaniş işonçini ham körsatadi. Şu jihatdan jadid adabiyotida tanqid va işonç bir-biriga zid emas, balki uyğun hodisa sifatida namoyon böladi.

Jadidlar yangilikka intiliş bilan birga milliy adabiy an’anaga ham sodiq qoldilar. Ular mumtoz adabiyot, xususan Alişer Navoiy merosiga murojaat qilib, uni milliy ruhiy tayanç sifatida talqin etdilar, şu bilan birga Şarq va Ğarb adabiyoti tajribasidan ijodiy foydalanib, yangi janr va şakllarni özlaştirdilar. An’ana va yangilikning uyğunligi jadid adabiyotining asosiy poetik tamoyillaridan biri bölib, uning milliy özlikka tayanuvçi, ammo özgarişlarga oçiq xarakterini belgilaydi.

Jadid asarlarining bugungi talqini ularni tarixiy kontekstda ham, zamonaviy öquvçi nuqtayi nazaridan ham öqişni talab qiladi. Bir tomondan, asarlar yaratilgan davr ijtimoiy-tarixiy şaroiti inobatga olinişi, ikkinçi tomondan, ulardagi umuminsoniy ğoyalar — ilmga intiliş, adolat, vatanga sadoqat va öz-özini anglaş — hozirgi davr uçun ham ahamiyatli ekani oçib berilişi lozim [3]. Şunday yondaşuv jadid merosini muzey eksponati emas, balki tirik ma’naviy tajriba sifatida qabul qilişga imkon beradi.

Janrlar kesimidagi tahlil özlikni anglaş jarayonining bir neça bosqiçini körsatadi: şe’riyatda u hissiy uyğoniş, dramada ijtimoiy mulohaza va tanqid, tarixiy nasrda esa tarixiy xotira va milliy xarakter sifatida namoyon böladi. Bu bosqiçlar bir-birini töldirib, jadid adabiyotining yaxlit ğoyaviy-badiiy tizimini hosil qiladi.

Tadqiqot natijalarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Adabiyot darslarida jadid asarlarini janr xususiyatlariga köra örganiş, ularni qardoş turkiy xalqlar adabiyotidan olingan namunalar bilan qiyosiy öqiş öquvçilarda milliy özlik tuyğusini, tanqidiy va ijodiy fikrlaşni, madaniyatlararo hurmatni şakllantiradi. Dramatik sahnalarni rollarga bölib öqiş, şe’riy matnlarni izohlaş va tarixiy manbalar bilan işlaş kabi usullar bu jarayonni samarali qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari jadid adabiyotida özlikni anglaş ğoyasi har bir janrda öziga xos badiiy şaklga ega bölişini körsatadi: dramada ijtimoiy ziddiyat, nasrda tarixiy xotira, şe’riyatda ramziy-lirik obraz orqali ifodalanadi. Ona tili, vatan va hurriyat tuşunçalari esa barça janrlarni birlaştiruvçi yagona ğoyaviy asos bölib xizmat qiladi. Bu meros bugungi yoş avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaşda ham, adabiyotşunoslik tadqiqotlarini boyitişda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyğoniş. Toşkent: Ma’naviyat, 2002.

2. Qosimov B. va boşq. Milliy uyğoniş davri özbek adabiyoti. Toşkent: Ma’naviyat, 2004.

3. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.

4. Mirziyoyev Ş.M. Yangi Özbekiston strategiyasi. Toşkent: Özbekiston, 2021.

5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toşkent: Ma’naviyat, 1999.

6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1–4-jildlar. Toşkent: Ma’naviyat, 2000–2018.

7. Qodiriy A. Ötkan kunlar. Mehrobdan çayon. Toşkent: Ğafur Ğulom nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

8. Çölpon. Asarlar. Toşkent: Çölpon nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi, 1994.

9. Dulatuli M. Oyan, qazaq! Qazan, 1909.